

## SUR QORAKO‘L QO‘YLARINING YARATILISH TARIXIDA SELEKSION USULLAR

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va*

*biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali*

*Zooinjeneriya va ipakchilik kafedrasida dotsenti,*

***Yangiboyev Abdimalik Eshmurodovich***

*Zooinjeneriya va ipakchilik kafedrasida assistenti*

***Sharifov Davlat Ma‘ruf o‘g‘li***

*Zooinjeneriya va ipakchilik kafedrasida assistenti*

***Ko‘charov Sirojiddin Yo‘ldosh o‘g‘li***

***Annotatsiya:*** Mamlakatimizda sur qo‘ylarining yaratilish tarixi, ularning zavod tiplarining barpo etilishida seleksion usullarida foydalanish yo‘llari, ularning qorako‘lchilik xo‘jaliklarida qo‘llaniladigan usullarni tadbiq etilish jarayonlari haqida so‘z yuritilgan va ularni ishlab chiqarishda joriy etilganligidagi natijalari haqida ko‘rsatilgan.

***Kalit so‘zlar:*** Seleksiya, usuli, irsiyat, qahrabo, qambari, epistaz, gipostaz, o‘rikgul, antratsid, inbriding, yarimgul, shuvoq, surlilik, juftlash, ressesiv, fenotip, dominant.

Qorako‘lning sur rangi barcha boshqa ranglardan farqi tola uzunligi bo‘ylab har xil rangli mintaqalar hosil bo‘lishida: tola asosi to‘q (ba‘zan qora ranggacha) rangli, uchlari esa sezilarli darjada och tusli. Ba‘zan uzunligi bo‘ylab tola ikki xil emas, balki uch xil randa bo‘yalgan. Rang zarralarining mintaqalar hosil qilib joylashishidan hosil bo‘luvchi go‘zal va jozibador ranglar o‘yini terilarga ajoyib ko‘rkamlik, sur qorako‘lcha tuganmas ehtiyoj bahshida etadi. Qorako‘lchilikda sur qo‘ylarning bir necha tipi va ko‘psonli rangbarangliklari yaratilgan.

Sur rangining har bir zot yoki zavod tipini, har bir rangbarangligini takomillashtirishda faqat zot ichidagi bir xil juftlash amalga oshiriladi. Ba`zan muayyan zot tip ichida har xil rangbaranglikdagi, masalan, kumushsimon va tillosimon, oq oltin (platina) va bronzasimon qorako`l qo`ylarini juftlanadi.

Sur qo`ylarni urchitishda juftlash hayvonlarni tanlashda ularning barra tiplari inobatga olinadi, jaket va yassi tiplar “o`z ichida” urchitilsa, o`siq gulli (kavkaz) tip sovliqlar-jaket, yassi yoki qovurg`asimon tipli qo`chqorlar bilan juftlanadi. Sur rangli qo`ylar bosh sonini ko`paytirish ehtiyoji tug`ilgan vaziyatlarda “siqib chiqaruvchi” ya`ni sur qo`chqorlarni boshqa rangli sovliqlar bilan takror va takror juftlash qo`llaniladi.

Sur qo`ylar uchun qorako`l gullari sifatidan tashqari qo`zi tanasi bo`ylab rangning tekis tarqalganligi, hamda rangning kontrastligi (rangi bo`yicha tola asosi bilan uchining o`zaro keskin farqlanish darajasi) va sur rangining ifodalanish darajalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtga kelib sur qo`ylarning, Buxoro zot tipini urchitishda sur rangining tozaligi, ifodalanish darajasi dolzarb va ahamiyatli muammoga aylandi. Bu muammoning yechimiga rangning xos belgilari bo`yicha tanlash hamda maqsadli juftlash yo`li bilan erishish mumkin. Bugungi kunda, Buxoro suriga mansub qorako`lda to`q tusli terilar ko`pchilik, bu terilarda tola uchi va asosi ranglardagi farq ko`zga tashlanmaydi, natijada gullarning naqadar sifatli bo`lishiga qaramasdan mazkur qorako`l o`z chiroyi va jozibasini yo`qotib, oddiy teriga aylanadi va ko`pincha rangdor qorako`l qatoriga kiritiladi.

Bu holat sur qorako`lchiligini jadal rivojlantirish kun muammosiga aylangan kezlari ko`pchilik sur qo`y suruvlari rangi bo`yicha har xil (geterogen) juftlash (qorasur) yo`li bilan yaratilganligidan, hamda seleksiya jarayonida sur rangining ifodalanish darajasiga yetarlicha e`tibor berilmaganligidan yuzaga keldi. Shu munosabat bilan seleksiya jarayonida samarali foydalanish maqsadida sur qo`ylarning sermahsul zavod tiplariga xos xususiyatlarni hisobga olish alohida ahamiyat kasb etadi.

Sverdlov zavod tipi, Buxoro viloyatining Sverdlov (hozirgi Jondor) tumaniga qarashli “O‘zbekiston” va “Kommunizm” kolxozlarida yaratilgan. Naslchilik ishini bajarish uslubiga binoan nasl sifati tekshirish natijalari asosida qattiq qo‘llik bilan qo‘chqorlarni yaroqsizga chiqarish yo‘lga qo‘yilgandi, shuningdek uch yillik tug‘im davomida birorta ham sur rang qo‘zi bermagan sovliqlar yaroqsizga chiqarilgan.

Bu suruvning sur qo‘zilari yashovchanligi bo‘yicha qora rang qo‘zilardan deyarli farq qilmaydi va uzoq vaqt davomida sof holda urchitish yetuk yoshli qo‘ylarning konstitusional zayifligiga olib kelmaydi. Qo‘ylarning qorako‘l mahsuldorligida yassi navli sur terilar salmog‘i yuqori. Mazkur zavod tipiga mansub qo‘chqorlar yugori irsiy barqarorlikka layoqantli (prepotensiya) bo‘lganligi tufayli sur rangdagi sermahsul qo‘y suruvlarini yaratishni niyat qilgan ko‘plab xo‘jaliklarda keng ishlatilgan.

Kumushsimon va tillosimon rangbaranglikdagi sur qo‘ylarning Sverdlov zavod tipi Qishloq xo‘jalik Vazirligi tomonidan 1961-yilning 6-iyun kuni tasdiqlangan va uning mualliflari sifatida R.I.Grigoryans, V.S.Surmach, R.A.Muhammadshinlar rasman tan olingan.

Mazkur zavod tipi qo‘chqorlaridan Buxoro viloyatining “Ko‘kcha”, “G‘alaba”, “Qorovul Bozor”, “Olot”, “Shafirkon” sovxozlarida keng ko‘lamli foydalanilgan. Navoiy zavod tipi, Buxoro viloyatining Sverdlov (hozirgi Jondor) tumaniga qarashli A.Navoiy nomli kolxozda tillosimon rangbaranglikdagi sur qorako‘l qo‘ylarining sermahsul zavod tipi yaratilgan.

Bu tipdagi sur qo‘zilarda tilla asosan to‘q jigarrangli, uchlari esa och yorqin tillosimon tusga bo‘yalgan, teri yuzasi bo‘ylab sur rangi tekis tarqalgan. Mazkur qo‘ylar guruhi Qishloq xo‘jalik Vazirligi tomonidan 1961-yilning 6-iyun kuni mustaqil zavod tipi sifatida tasdiqlangan, uning mualliflari etib M.Abduraxmonov, F.Qodirmetov va boshqalar rasmiy tan olingan. Hozirgi vaqtda Sverdlov va Navoiy zavod tiplariga mansub qo‘ylar Buxoro viloyati Jondor tumanining “Jondor” (ilgari Sverdlov nomli) DNZ da urchitilmoqda.

Qorako‘l zavod tipi Qashqadaryo viloyati Koson tumanining “Qora – Qum” naslchilik xo‘jaligida V.M.Yudin rahbarligida muvofaqiyatli olib borilgan naslchilik ishlari tufayli mashxurlikka erishgan sermahsul qora rang qorako‘l qo‘ylar suruvi yuzasida yaratilgan.

Shu narsani takidlash lozimki, XX-asrning 50-yillarigacha sur rang qorako‘l qo‘ylarini urchitishning ilmiy asoslangan uslubi yaratilgandi. 40-yillarning ikkinchi yarmida V.M. Yudin qo‘l ostida sur qo‘ylar suruvini yaratishning ilmiy asoslangan uslubiyatini ishlab chiqishga kirishildi va bu ish O‘zbekistonning “Qora-Qum” naslchilik xo‘jaligida bajarildi. Ishlab chiqilgan uslubiyat sur rang qo‘chqorlar bilan qora rang sovliqlarni juftlashni nazarda tutadi. Bu xil juftlashdan birinchi bo‘g‘inda 3-5% sur va 95-97% qora qo‘zilar olingan. Sur rangi bo‘yicha geterozigotali qora qo‘zilar balog‘atga yetganidan so‘ng yana sur qo‘chqorlar bilan qochirilgan. Shu tariqa juftlashdan ikkinchi bo‘g‘inda 35-40% gacha sur qo‘zilar olingan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich keyingi bo‘g‘inlarda mutassil tarzda oshib borgan. Hozirgi vaqtda 20 dan ziyod qorako‘lchilik xo‘jaligi Buxoro sur qo‘ylarini V.M.Yudin rahbarligida ishlab chiqilgan uslubiyat bo‘yicha urchitib kelinmoqda.

Qorako‘lchilik amaliyoti uchun ushbu uslubiyatning naqadar ta’sirli ekanligiga qaramasdan, sur rangining avlodlarga berilish tabiati to‘g‘risida olimlar bir to‘xtamga kela olishganicha yo‘q. Birinchilardan bo‘lib sur rangining naslga berilish tartibi to‘g‘risida B.N.Vasin so‘z yuritgandi. Uning ko‘rsatishiga rangi bo‘yicha gomozigotali qora sovliqlarni sur qo‘chqorlar bilan juftlashdan birinchi bo‘g‘inda faqat qora rang qo‘zilar olinishi lozim. Sur rangi bo‘yicha geterozigotali birinchi bo‘g‘in qora rang qo‘ylar sur rang qo‘chqorlar bilan qochirilganda olinadigan ikkinchi bo‘g‘in qo‘zilarning 50% qora va 50% sur rangli bo‘lishi kerak, ammo, amalda qora sovliqlarni sur qo‘chqorlar bilan juftlashdan olingan birinchi bo‘g‘in qo‘zilarning atigi 3-5% ginasi sur rangli bo‘lib, ikkinchi bo‘g‘inda sur qo‘zilar chiqimi 50% va 30-40% ni tashkil qildi xolos. Bu holatni tug‘iladigan ikkinchi bo‘g‘in qo‘zilarning ma‘lum bir qismida sur rangi chala ifodalangani (qora sur) bilan izohlash

mumkin. Bu qo‘zilar tashqi ko‘rinishi (fenotipi) bo‘yicha qora rangli bo‘lsa ham aslida irsiyati (genotipi) bo‘yicha sur rangli hisoblanadi. Birinchi bo‘g‘inda 3-5% fenotipi bo‘yicha qora sovliqlarning sur qo‘zilar berishini ularning irsiy jihatdan sur yoki qambar rangi bo‘yicha geterozigotali ekanligi bilan izohlash mumkin. Ba‘zi olimlarning fikricha, qorako‘l qo‘ylar irsiyatida qora rangning ikki xil omili mavjud bo‘lib, ulardan biri sur rangidan ustunlik qiluvchi (dominant) qora va ikkinchisi sur rangi omillariga nisbatan zaiflik qiluvchi (resessiv) qora rangdir. Ayrim olimlarning fikricha fenotipi bo‘yicha qora rangli qo‘ylar irsiyatida sur rangiga nisbatan ustunlik qiluvchi (dominant) qora va sur rang omillariga ustunlikni beruvchi (resessiv) qora rang omillari mavjud bo‘lib, go‘yoki sur qo‘zilarni sur rang qo‘chqorlar bilan juftlangan resessiv qora rangli sovliqlar bersa kerak.

Sur qo‘ylarning Qora-Qum zavod tipini yaratish jarayonida dastavval, Buxoro viloyatining Sverdlov tumanidan 5 bosh sur qo‘chqor olib kelingandi. Yugorida ta‘kidlanganidek, bu ishning mohiyati qo‘ylar irsiyatidagi qora rang omilini siqib chiqarish maqsadida qora sovliqlarni sur qo‘chqorlar bilan juftlash yo‘li bilan suruvlarda sur rangli va sur rangi bo‘yicha geterozigotali qora rang qo‘ylar salmog‘i oshirib borishda edi. Zavod tipining sinovdan o‘tkazib tasdiqlash vaqtida xo‘jalik suruvlarida 600 bosh sur va sur qo‘chqorlarining qiz va nabiralari hisoblanuvchi 11000 bosh qora rang qo‘ylar mavjud edi. Seleksiya ishlarining boshida sur qo‘ylarni sof holda urchitishdan 68,5% sur qo‘zilar olingan bo‘lsa, keyinchalik bu ko‘rsatkich 90% dan ham oshib ketdi. Zavod tipini sinovdan o‘tkazish jarayonida ikkala rangdagi, ya‘ni ham qora ham sur rangli qorako‘lning yuqori sifatli ekani qayd qilingan. Ayniqsa tola qoplami ajoyib ipaksimon va yaltiroq bo‘lgan, yuzasi qalami va loviyasimon gullar bilan qoplangan kumushsimon rangbaranglikdagi sur terilarga alohida e‘tibor qaratildi. Kumushsimon rangbaranglikdagi sur qo‘ylarning Qoraqum zavod tipi Qishloq xo‘jalik Vazirligi tomonidan 1962-yilning 6-iyunida tasdiqlangan va mualliflari sifatida V.M.Yudin, M.L.Kotov, B.N.Otaqurbonov, T.Fozilov, M.Olloyorov, A.T.Kashakovlar rasman tan

olingan. Qizil qum zavod tipi Buxoro viloyati Konimex tumanidagi Oyoq-Og'itma tajriba stansiyasida qora rang sovliqlarni Sverdlov tumanidan keltirilgan Buxoro sur rang qo'chqorlar bilan juftlash orqali yaratilgan.

Bunda siqib chiqaruvchi juftlash usuli qo'llanilgan. Rangi bo'yicha har xil ya'ni qora rang sovliglani sur rang qo'chqorlar bilan juftlashgan sur va sur rangi bo'yicha geterozigotali qora rang sovliqlar olingandi. Sur rang qo'zilar chiqimini ko'paytirishga qaratilgan tanlash ishlari samarali chiqdi va avloddan-avlodga sur qo'zilar salmog'i oshib bordi.

Sinovdan o'tkazish uchun qo'ylar suruvi tekshirilgan paytda sur rang qo'ylar soni 4772 boshni, sur rangi bo'yicha geterozigotali qora qo'ylar 5333 boshni tashkil qilgan. Sof rangli urchitishda sur qo'zilar chiqimining 90 va undan ham ziyodroq foizini tashkil qilishi zavod suruvi hayvonlarining irsiy barqarorligini va uning katta nasliy ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Qorako'l terilarining 93% dan ko'proq qismi birinchi navlarga o'tkazilgan. Sur qorako'l ichida rangbarangliklar salmog'i quyidagicha bo'ladi: kumushsimon 46,2%, tillosimon -25,1%, och binafsha (sirensimon)-1,7%, surliligi yaqqol ifodalanmagan terilar -7%. Bu zavod tipi Qishloq xo'jalik Vazirligi tomonidan 1961 yilning 6 iyun kuni mustaqil zavod tipi sifatida tasdiqlanib, uning mualliflari sifatida X.Qiztug'arov, V.S.Jilyakova, M.D.Zakirov va boshqalar rasman tan olingan.

Mazkur zavod tipiga mansub qo'y suruvlari 1963-yilda Samargand viloyatining "Qarnab" (hozirgi R.Jaxongirov nomli) DNZ ga o'tkazildi, Qizilqum zavod tipiga mansub sur qo'ylarini takomillashtirish ishlari Butunittifoq qorako'lchilik ilmiy tadqiqot yuklatilgan.

Nurato zavod tipi-Nurato tog' tizmalari yonbag'rida joylashgan "Nurato" DNZ da yaratilgan. Xo'jalikning yaylovli hududi tog' yonbag'ri yarimcho'l, shuvoq efimerli cho'l va qizilqumning saksovullar o'suvchi qumli mintaqalariga joylashgan. Sur qo'ylar galasini yaratish ishlari 1957-yilda boshlangan bo'lib, undan mavjud sur qo'ylar suruvining mahsuldorligini yanada takomillashtirib, mutassil zavod tipi darajasigacha yetkazish, maqsadga

muvoftiq belgilarning avlodlarda kuchayishi va naslga berilish barqarorligini oshirish uchun barra tipi va rangbarangliklar bo'yicha bir xil juftlashni surlanish darajasini kuchaytirishga qaratilgan juftlashni, liniyalar bo'yicha urchitishni yo'lga qo'yish kuzatilgandi.

Yetuk yoshli sur qo'ylar tanasi mutanosib tuzulishli, konstitusiyasining mustahkamligi aniq, yaxshi avlodlar beruvchi, jun qirqimi yaxshi, yaylov va iqlim sharoitiga, tog'oldi yarim cho'l va qizilqum cho'llariga yaxshi moslashgan. Mazkur zavod tipining qo'zilariga gavdasining o'rtacha o'lchami, mustahkam konstitusiyasi, o'rta uzunlikdagi tolasi, bejirim tillosimon va kumushsimon rangbarangligi bilan ta'riflanadi.

Bu zavod tipi Qishloq xo'jalik Vazirligi tomonidan 1971-yilning 7-aprelida tasdiqlanib, uning mualliflari sifatida V.I.Stoyanovskaya, O.P.Fishenko, X.Egamov, M.Nurboyevlar rasman tan olingan. Bu tipga mansub qo'chqorlardan "Leninchi Chorvador" naslchilik xo'jaligida, Jumanbulbul o'g'li nomli, Omongeldi nomli, Lenin nomli, Kalenin nomli, "Progress", "Malikcho'l" sovxozlarida keng foydalanilmoqda.

Tollimarjon zavod tipi. Bu zavod tipini yaratish ishlari 1952-yilda boshlangandi. Bunda dastavval mahalliy sur qo'chqorlar bilan xo'jalikning sur qo'ylari o'zaro gomogen, qora rangli sovliqlar esa geterogen usulda juftlangandi. 1957-yilda Buxoro viloyatining "Oyoq Og'itma" tajriba stansiyasida voyaga yetkazilgan. Qizil Qum zavod tipiga mansub sur qo'chqorlarning birinchi guruhi xo'jalikka keltirilganidan so'ng ishlar jadallashib muvofaqqiyatli davom etdi.

Xo'jalikka keyinroq olib kelingan ikkinchi guruh Buxoro sur qo'chqorlari Sverdlov zavod tipiga mansub bo'lib Buxoro viloyatining Sverdlov tumaniga qarashli Sverdlov nomli kolxozda voyaga yetgan.

Buxoro surining Tollimarjon zavod tipiga mansub sur qo'ylar yaxshi rivojlangan, mustahkam konstitusiyali, tirik vazni, tana o'lchamlari va tana tuzilish indeksleri, jun mahsuldorligi, serpushtligi bo'yicha qora rangli qo'ylardan deyarli farq qilmaydi. Ular "Qora Qum" cho'lining og'ir



sharoitlariga yaxshi moslashgan. Sur rang terilar asosan jaket barra guruhiga mansub bo‘lib, kumushsimon va tillosimon rangbaranglikda, sur rangi teri yuzasi bo‘ylab tekis tarqalgan, tola qoplami ipaksimon va yaltiroq. Mazkur zavod tipi Turkmanistonning "Tollimarjon" DNZ da yaratilib, 1972-yilning 18-dekabrida tasdiqlangan. Zavod tipining mualliflari etib K.Ch.Lemayev, X.Orazmamedov, E.M.Erman, S.S.Sakronov, Ye.Qodirboyev, Ye.D.Otanazarov, A.Arazov, D.A.Solonixlar rasman tan olingan.

O‘zbekistonning “Kommunizm”, “Oktabr 40 yilligi”, Kirov nomli, Qozog‘istonning “Syutkent”, “Toylaqskiy” DNZ larida Buxoro zot tipli sur qo‘ylarining sermahsul suruvlari yaratilgan, ana shu xo‘jaliklar negizida ehtimol yangi zavod tiplari yaratilishi ham mumkin. Sur qorako‘l qo‘ylarning Surxondaryo zot tipi, Bugungi kunga kelib qorako‘lchilikni har xil rang va rangbarangliklardagi rangdor qorako‘l bilan boyitishga intilish kuzatilmoqda. Qorako‘l zotini ilg‘or yo‘nalish bo‘yicha qayta tashkil qilish va takomillashtirishning asosiy usuli belgilangan maqsad yo‘lida seleksiya olib borishdir. Surxondaryo viloyatining Gagarin nomli (hozirgi “Oq qopchig‘ oy”) DNZ ana shu maqsadga erishish na‘munasi bo‘laoladi, zero bu xo‘jalikda qorako‘lning bronzasimon, platinasimon (“oq oltin”) va yantarsimon (“qaxrabo”) rangbarangliklari yaratildi va provard natijada qorako‘l zotini ichida yangi tip-surxondaryo suri shakllantirildi.

“Rangdor” qo‘ylar suruvi bilan yuritilajak seleksiya ishlari 1937-yilda boshlangandi. Ana shu sanada ilgari ko‘k, sur, qambar va boshqa xillardagi rangdor qo‘ylarni urchitish bilan mashg‘ul bo‘lgan Buxoro viloyatining “Qorovul Bozor” sovxozi tugatilib, uning tasarrufidagi qorako‘l qo‘ylari, shuningdek Qashqadaryo viloyatining “G‘o‘zor” sovxoziga qarashli qambar rang qo‘ylar “Oq qopchig‘oy” sovxoziga berilgandi.

Keyinchalik (1943-1945 yillar) sur qo‘ylarning yangi tipini yaratishga qaratilgan tadqiqotlarni boshlab yuborildi. Bunda tola o‘lchamining tusi yoki rangi to‘a tusli asosidan keskin farqlanish evaziga a‘lo darajada surlangan qo‘zilarni beraoladigan sur qo‘ylar suruvini yaratishga qaror qilingandi.



Sur qo‘ylarning yangi zot tipini yaratishda quyidagi usullardan foydalanilgandi.

1. Qambar rang qo‘ylarni tola uchlarining oqarish darajasiga qarab tanlash va juftlash.

2. “Qon –qarindoshlik” (indriding) urchitishni qo‘llash.

3. Bir yo‘nalish bo‘yicha uzoq muddatli seleksiya yuritish (bu masala “Xolboy”-4733 raqamli qo‘chqor va uning avlodariga tegishli).

4. Dastavval yaratilgan alvon (“chervonnaya”) simon rangbaranglik o‘rniga bronzasimon (bu rangbaranglikning asoschisi “Xolboy”-4733 raqamli qo‘chqorlaridan olingan “Oq dum”-117 qo‘chqor) va platinasimon (bu rangbaranglikning asoschisi “Ola-bosh” -22 qo‘chqori) rangbarangliklar yaratilishi.

5. Hayvonlar irsiyatida rangbaranglik omillarini kuchaytirib, barqarorlashtirish uchun yaqin “qon –qarindoshlik” urchitishning bu usuli bronzasimon surlarda ijobiy natija bergan bo‘lsa, platinasimon surda esa natija olinmadi.

6. Platinasimon rangbaranglikdagi hayvonlar bosh sonini ko‘paytirishga bronzasimon va platinasimon rangbaranglikdagi hayvonlarni o‘zaro juftlash yo‘li (krossi) bilan erishildi. Bu tartibdagi urchirish “Qaxrabo”-2810 qo‘chqori asos solgan yangi yantarsimon qahrabosimon rangbaranglikning paydo bo‘lishiga olib keladi.

7. Chuqurlashtirilgan seleksiya-naslchilik ishlari, hozirgi vaqtda rangbarangliklar (yaltiroq ko‘mir (antrasid) simon, oysimon, qumsimon va boshqa shu kabilar) hamda yassi, movut (velped) simon, qorako‘lchasimon tiplar yaratilishiga olib keladi.

8. Yangidan yaratilgan Surxondaryo zot tipi Buxoro suriga nisbatan qator farqlarga ega. Jumladan Surxondaryo suri:

a) Tola oqargan, uzunligining ko‘proqligi;

b) Tola uchi va asosining ranglar bo‘yicha o‘zaro keskin farqlanishi;

v) Tola asosi va uchi rangining keng ko‘lamda o‘zgaruvchanligi.

Boshqacha kelib chiqishli, boshqacharoq irsiyatli Surxondaryo suri qambar (jigar) rangiga nisbatan kuchlilik (epistaz) kelsa, qora rangga nisbatan zaiflik (gipostaz) keladi.

Rangbarangliklar bo'yicha bir xil juftlashda ota -onasining kabi rangbaranglikdagi qo'zilar chiqimi bronzasimon rangbaranglik bo'yicha - 58,4%, platinasimon rangbaranglik bo'yicha -36,4%, yantarsimon rangbaranglik bo'yicha 22,9%, antrasidsimon rangbaranglik bo'yicha -71,1% ni tashkil qiladi.

Naslchilik zavodiga tegishli sur qo'ylar suruvining o'ziga xosligi barcha hayvonlarning bir -biriga qarindoshligida, ya'ni suruvdagi barcha qo'ylar ikki qo'chqor -Xolboy 4733 va Ola bosh 22 dan tarqalganligida. Shu sababli mavjud bo'lgan va hozir mavjud liniyalarni ikki asosiy guruhga birlashtirish mumkin:

I-guruh ("Xolboy" liniyasi). Mazkur zot tipiga asos solgan liniyalardan biri bo'lib, u o'z faoliyatini 1966-yilda tugatgan ammo, uni Xolboy qo'chqoridan tug'ilib, asosan bronzasimon rangbaranglikdagi avlodlar beruvchi "Oq dum" 174 qo'chqor liniyasi davom ettirdi.

Bugungi kunda u ham katta ahamiyatga molik bo'lmasdan qoldi. Shu guruhga Xolboyning chorvasi hisoblanuvchi yantarsimon sur qo'ylarini urchitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

I-guruh. ("Ola bosh" liniyasi). O'z vaqtida bu liniya zot tipining kuchli yetakchisi hisoblangan, bugungi kunda u alohidalanib quyidagi mustahkam liniyalar ko'rinishida faoliyat ko'rsatmoqda:

"Malla shox" 7266 (Ola boshning chevarasi) liniyasi. Liniya asoschisi chiroyli platinasimon rangbaranglikdagi qorako'lga (tola asosi qariyib qora rangli, tola uchi esa musaffo oq rangli) ega edi. Liniyaga mansub hayvonlar muhim sifat belgilarini avlodlarga o'tkazishda irsiy barqaror.

Mazkur zot tipining qo'chqorlaridan Jizzax viloyatining "Forish", "Qizil Qum", Surxondaryo viloyatining "Kommunizm" va "O'zbekiston" sovxozlarida keng foydalanilmoqda.

Yu.J.Jumaniyozov birinchi bo‘lib qorako‘lchilik adabiyotlarida sur qorako‘l qo‘ylarining qoraqalpoq zot tipiga, uning asosiy rangbarangliklariga batafsil ta‘rif berganda, tekshirib chiqqandi. Bu zot tipining qo‘chqor va sovliqlari tirik vazni bo‘yicha qora rangli tengdoshlariga tenglashaolmaganligiga qaramasdan yaxshi rivojlanganligi ko‘zga tashlanadi. Hayvonlar tashqi tuzulishining xos xususiyatlariga suyaklarining baquvvatligi, qoplovchi tolalarning kuchli rangi, yoshi ulg‘ayishiga mos tarzda jun qoplaminig oqarishi, bo‘yin qismida tabiiy sirg‘alar mavjudligi, quloqlarining turli uzunligini kiritish lozim. Bu qo‘ylar galasida qisqargan va kalta quloqli, ko‘zlari moviy yoki yoqut tusda tovlanuvchi hayvonlar keng tarqalgan. Hayvonlar konstitusiyasi asosan mustahkam, ammo qo‘pol tiplar ham anchagina. Ular uchun tumshug‘i ensasi va dumi uchidagi ola dog‘lar xos belgi desa ham bo‘laveradi.

Qo‘zilarning gullari birmuncha yiriklashgan, teri yuzasini ko‘proq loviyasimon va yarimdoirasimon qalami gullar egallagan, terining vazni og‘iroq, sath o‘lchami bo‘yicha qora qorako‘lga tenglashaolmaydi. Qora qorako‘lga nisbatan Qoraqalpoq surida tolalar uzunroq bo‘lganligidan gullari sal balandroq ko‘rinishga ega; tola qoplami sal siyraklashgan, yetishmagan ipaksimon, lekin kuchli yaltiroq. Umuman olganda tola qoplaminig sal dag‘alligiga va siyraklashganligiga qaramasdan Qoraqalpoq sur qorako‘li inson tasavvuridan ulug‘vorlikni, bejirimlikni, estetik rohat bag‘ishlovchi nozik chiroyni gavdalantiradi.

Boshqa zot tiplaridan farqli o‘laroq Qoraqalpoq surida tolalarda rangsizlanish (depigmentasiya) jarayonlari chuqur va keskin o‘tganligidan tolalarning oqargan uchi nisbatan uzunroq va tiniqroq ko‘rinadi, ammo u turli turlarda tovlanishi ham mumkin. Bu holat Qoraqalpoq surida rangbarangliklar shakllanishiga olib keladi. Quyida qoraqalpoq suridagi asosiy rangbarangliklar ta‘rifini keltiramiz. Shamchiroq gul tola asosi qora rangda bo‘lib uchlari oq rangli, shu bilan birga tolalarining oqargan uchi tola uzunligining 20-25% gachasini tashkil qiladi. Po‘lati sur -tola asosi qora rangli, uchlari yarqiroq

po‘lat rangda tola uchining oqargan qismi tola uzunligining 25-30% ga to‘g‘ri keladi. O‘rikgul tolaning eng past qismi qora rangli, o‘rta qismi qoramtir - qo‘ng‘ir, uch qismi och qambar rangli. Tola uchining oqarish masofasi tola uzunligining 40-45%ga to‘g‘ri keladi, ya‘ni tolalar uzunligining qariyb yarmi rangsizlangan.

Qamar tola asosi qora yoki to‘q qo‘ng‘ir rangli, uchlari sariq tillo rangli. Tolauchining oqarish masofasi tola uzunligining 30-35% ga to‘g‘ri keladi.

Chaqir tola asosi tutun rangli, uchlari xira oq tusli. Tola uchining oqarish qisman tola uzunligining 40-50% ga to‘g‘ri keladi. Tola asosi bulut rangli bo‘lgan holatlarda mazkur rangbarangliklarni kumush sur bilan adashtirish ham mumkin. Yugorida ta‘rifi keltirilgan rangbarangliklarning keng ko‘lamli rang o‘yinlari negizida qoragalpoq surining ko‘p sonli ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Ana shu rangbarangliklar orasida tola uchlarining oqarish tabiati va darajasining ancha bir xilligi asosan shamchiroqgul va po‘lati surda, qisman qamar, chaqir va shabdor rangbarangliklardagi terilarda kuzatiladi. O‘rik gul rangbaranglikdagi terilar rang ifodalanishi bo‘yicha keng chegaralarda bir biridan farqlanadi. Qoraqalpoq surida uchraydigan ranglar xilma xilligi, unga xos bo‘lgan rangli dog‘lar bilan uyg‘unlashgan bo‘ladi, buning ustiga nuqtali oq dog‘lar ko‘pincha qo‘zilarning tumshug‘i, oyoqlari va dum uchida paydo bo‘ladi. Terisida ola dog‘lar maydonining yiriklashib ketishi qo‘zini olaligi uchun yaroqsizga chiqarishga olib keladi.

Zot tipidan qat‘iy nazar sur qorako‘l qo‘ylari rangbarangligi bo‘yicha bir xil juftlanganida olinadigan natija bir xil bo‘laveradi, ya‘ni ota -ona rangbarangligidagi avlodlar chiqimi ko‘pi bilan 75% ni tashkil qiladi, ya‘ni avlodlarda ota-ona rangbarangligining to‘lig‘icha namoyon bo‘lishi kuzatilmaydi. Bu holatni sur rangi omillarining zaifligi (resessivligi) bilan izohlash mumkin. Masalan, shamchiroqgul rangbaranglikdagi ota -ona juftlanganida shamchiroqgul qo‘zilar chiqimi 70,7% bo‘lsa, po‘lati sur ota -onadan 73% po‘lati sur qo‘zilar, o‘rikgul ota -onadan 69,7% o‘rikgul qo‘zilar, qamar rangbaranglikdagi ota -onadan 71,1% “qamar” qo‘zilar olingan.

Shunday qilib, Qoraqalpoq sur rangdor qorako‘lni ishlab chigarishga ancha ta‘sir ko‘rsatuvchi qimmatbaho zahira manbai hisoblanadi. Qoraqalpoq surining eng yaxshi qo‘y suruvlari “Janbasqala”, “Bukan Merey” sovxozlariga yig‘ilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Sobirov P.S.- Genetika va biotexnologiya asoslari. Elektron darslik. Samarqand- 2006.
- 2.Nosirov U.N.,G‘.U.Nosirov, T.U.Nosirov- Chorvachilikda klassik va zamonaviy seleksiya usullari. Toshkent. 2008.